




Гулом ШОМУРОД

ИЗХОР

Ғулом Шомуроғ

ИЗҲОҒ

(Шеърлар ва достон)

“Бухоро” нашриёти—2011 йил

Босишга рухсат этилди 26.08.2011 й.

Босма табағи 5.6

Буюртма №1840. Адади 1000.

*"Бухоро" нашриёти. Бухоро ш. И.Мўминов
кўчаси 27—уй.*

*"Ёқуб Довуд" босмахонасида чоп этилди.
Босмахона манзили:*

Бухоро ш. Ўзбекистон мустақиллиги кўчаси

Таниқли шоир, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими Фулом Шомуроднинг ушбу тўғламидан янги шеърлар ҳамда "Изҳор" достони ўрин олган.

Шеърларда табаррук замин, она Ватан, Бухоройи шарифда туғилиб ўтган буюк шахслар васф қилинса, Истиқлолнинг шонли 20 йиллигига бағишлаб ёзилган достонда мустақилликнинг юртимиз ва халқимиз ҳаётидаги беқиёс аҳамияти, унга эришиш йўлидаги курашлар ҳамда ҳурлик даврида қўлга киритилган улкан ютуқлар маҳорат билан қаламга олинган.

Азиз китобхон, ўйлаймизки муаллифнинг бу янги китоби ҳам сизга маъқул бўлади ва сиз ундан керакли маънавий озуқа оласиз.

Фулом Шомурод

ИЗҲОР

(Шеърлар ва достон)

Муҳаррир:
Тех.муҳаррир:
Мусахҳиҳ:
Мусаввир:
Компьютер дастурчиси:
Оператор:

И.Субҳоний
Г.Самиева
С.Шомуродов
К.Икромов
Н.Раджабова
З.Бобоева

Бахт

Ватанни куйламак бахтдир,
Ватанда яшамак тахтдир.
Насиб этса булар кимга-
Кулиб боққан унга тақдир!

Baxt

Vatanni kuylamak baxtdir,
Vatanda yashamak taxtdir.
Nasib etsa bular kimga-
Kulib boqqan unga taqdir!



БАТАН

Ватандир аслида қалбларга қўрғон,
Юрак ҳам макондир шу азиз юртга.
Бу гаплар рост, ахир унда йўқ ёлғон,
Бу гаплар беҳуда чиқмайди сиртга.

Чин меҳр қачон ҳам қилинган кўз-кўз,
У яшар ҳамиша юрак қатида.
Ватан ҳам яшайди юракда, сўзсиз.
Ҳар юрак ватандир юртга аслида.

Юрти бор инсоннинг бағридир бутун.
Кўнгли чоқ, ҳамиша узундир тили.
Озод, ҳур яйрайди унда жону тан!

Ватансиз кишининг кўнглида тутун,
Офтобсиз оламдай қоронғу дили
Бундайин юракда яшамас Ватан!

Январ, 2011 й.



VATAN

Vatandir aslida qalblarga qo'rg'on,
Yurak ham makondir shu aziz yurtga.
Bu gaplar rost, axir unda yo'q yolg'on,
Bu gaplar behuda chiqmaydi sirtga.

Chin mehr qachon ham qilingan ko'z-ko'z,
U yashar hamisha yurak qatida.
Vatan ham yashaydi yurakda, so'zsiz.
Har yurak vatandir yurtga aslida.

Yurti bor insonning bag'ridir butun.
Ko'ngli choq, hamisha uzundir tili.
Ozod, hur yayraydi unda jonu tan!

Vatansiz kishining ko'nglida tutun,
Oftobsiz olamday qorong'u dili
Bundayin yurakda yashamas Vatan!

Yanvar, 2011 y.



ЭНГ КИЧИК ЮЛДУЗ

Каҳқашонда юриб хаёлан бир тун,
Она ер, сен томон югуртирсам кўз,
Дедилар бу ердан аниқмас замин
Сен яшайдиган жой — ҳув кичик юлдуз.

Атрофимда эса сабъаи сайёр
Нур сочиб порларкан олади кўзни.
Сен эса турибсан милтиллаб бедор,
Бағрингда жо айлаб миллиард юлдузни.

Юлдузлар деганим эмас чироғинг,
Ҳар бир инсон ахир сенинг юлдузинг.
Бу ердан маълуммас дарё, кўл, тоғинг,
Наҳотки энг кичик юлдуз, ер — ўзинг.

Биз ахир кун кўриб сенинг бағрингда
Яшаймиз ўзингни санаб кенг дунё.
Билсамки, энди мен Миҳри меҳварда
Сен каби юлдузлар экан беадо.

Чеки йўқ олам бу,
Чексиз бу дунё,
Сайёралар сони бунда бесаноқ.
Баъзисида бўлса балки сув, ҳаво,
Демакки, жонзот бор, мавжуд яшамоқ.

Эй, улкан заминим
— Кичик юлдузим,
Олисдан боқяшман ҳозир сен томон.
Барибир ҳуснингдан тўймайди кўзим,
Мен учун ўзингсан Мирриху Чўлпон.

Йўқ, йўқ улардан ҳам ортиқсан, аъло,
Боғларинг жаннат, булоғинг кавсар.
Алишмам, ўзга бир юлдузга асло,
Сенга тенг келолмас ул Саъди акбар.

Мармардай соф ҳавонг — танимга дармон,
Муаттар гулларинг янгратар кўнглим.
Гўзалдир кўллару тоғлару ўрмон,
Жонзот учун масдир сенда ҳар иқлим.

Хислату фазилат беҳисоб сенда,
Сен — башар ватани, сенда наботот.
Оламда сен ўзинг гўзал сайёра,
Ҳозирча бир сенда энг боқий ҳаёт!

Койнотда кичик юлдузсан, гарчи,
Ҳуснда тенгсизсан, парисан, малак.
Шамс, ой — жаҳон кўзи,
Ўзинг гул юзи,
Сенсиз ғариб бўлур осмону фалак.

Эндиги гапларим
Сизга одамлар,
Шу замин бергувчи бизга нону туз.
Некликни келтирсин ҳар бир қадамлар,
Мангу порлаб турсин шу кичик юлдуз!

Март, 2011 й.

ENG KICHIK YULDUZ

Kahqashonda yurib xayolan bir tun,
Ona yer, sen tomon yugurtirsam ko'z,
Dedilar bu yerdan aniqmas zamin
Sen yashaydigan joy -- huv kichik yulduz.

Atrofimda esa sab'ai sayyor
Nur sochib porlarkan oladi ko'zni.
Sen esa turibsan miltillab bedor,
Bag'ringda jo aylab milliard yulduzni.

Yulduzlar deganim emas chirog'ing
Har bir inson axir sening yulduzing.
Bu yerdan ma'lummas daryo, ko'l, tog'ing,
Nahotki eng kichik yulduz, yer -- o'zing.

Biz axir kun ko'rib sening bag'ringda
Yashaymiz o'zingni sanab keng dunyo.
Bilsamki, endi men Mihri mehvarda
Sen kabi yulduzlar ekan beado.

Cheki yo'q olam bu,
Cheksiz bu dunyo,
Sayyoralar soni bunda besanoq.
Ba'zida bo'lsa balki suv, havo,
Demakki, jonzot bor, mavjud yashamoq.

Ey, ulkan zaminim
-- Kichik yulduzim,
Olisdan boqyapman hozir sen tomon.
Baribir husningdan to'ymaydi ko'zim,
Men uchun o'zingsan Mirrixu Cho'lpon.

Yo`q, yo`q ulardan ham ortiqsan, a'lo,
Bog'laring jannatu, bulog'ing kavsar.
Alishmam, o'zga bir yulduzga aslo,
Senga teng kelolmas ul Sa'di akbar.

Marmarday sof havong — tanimga darmon,
Muattar gullaring yangratar ko'nglim.
Go'zaldir ko'llaru tog'laru o'rmon,
Jonzot uchun mosdir senda har iqlim.

Xislatu fazilat behisob senda,
Sen — bashar vatani, senda nabotot.
Olamda sen o'zing go'zal sayyora,
Hozircha bir senda eng boqiy hayot!

Koinotda kichik yulduzsan, garchi,
Husnda tengsizsan, parisan, malak.
Shams, oy — jahon ko'zi,
O'zing gul yuzi,
Sensiz g'arib bo'lur osmonu falak.

Endigi gaplarim
Sizga odamlar,
Shu zamin berguvchi bizga nonu tuz.
Neklikni keltirsin har bir qadamlar,
Mangu porlab tursin shu kichik yulduz!

Mart, 2011 y.

Буюк истиқлолнинг
шонли йигирма йиллигига
бағишлайман.

ИЗҲОР

(гостон-қасида)

Эй, замону асрлар оша --
Улкан орзу бўлиб келган,
Денгиз бўлиб, кўшириб тоша --
Қалбда эпкин бўлиб елган,
Муқанна ҳам Торобийларнинг
Дилидаги ўту аланга --
Гуруллаган, гуруллаб ёниб
Қудрат берган ушбу
Ватанга --
Ўзинг ахир Ҳумосан --- ҳурлик!
Айтгим келди сенга қасида,
Сен туфайли
Юраклар -- пурлик,
Бу -- дил изҳорим,
Аслида ---
Муборак тўй фаслида!..

Эй, дунёнинг қадим ватани --
Бақтрия, Куптон, Туроним,
Сен халқимнинг жони ҳам тани,
Ёнгилмаган омон -- омоним,
Курашди -- ку сен деб
Тўмарис,
Ҳалок этди зол ёвни Широқ,

Жон берди -- ю,
Бермади юртни,
Қай бирини сўйлайин бу чоқ...
Кайхусраву Искандар, Доро
Келиб,
Этди нима каромат,
Кўриб Самарқанду,
Кўриб Бухоро
Суқи кетиб деди:
"Аломат!"...
Бу босқинлар
Бўлди бардавом,
Бунда келди мўғул, араблар,
Кўзларини тикди биз томон
Жанубу ғарб,
Шимол тарафлар.
О, у пайтлар эл эди тарқоқ --
Ҳар тарафда хону амирлик,
Бўлинганнинг аҳволи чатоқ --
Бўлур,
Юртда бўлмаса бирлик.
Шу боисдан мўғул босқини
Юртни эзди, эзди узоқ пайт...
Ва қуритди улар ёстигин.
Амир Темур --
Эгаллагач тахт!
Буюк Темур
Қувиб ёвларни
Барпо этди буюк мамлакат,
Барҳам берди тўсиқ ғовларни
Дўст тутунди уруғу элат!
Хўп гуллади Кешу Самарқанд,

Обод бўлди қадим Бухоро
Темур тузган буюк мамлакат
Довруқ солди кенг олам аро.
Темур ўғли Шохруҳдан сўнгра
Тахтга чиққач Мирзо Улуғбек,
Ривож топиб илму фан роса
Нур таратди офтобу ойдек...
Душманликнинг ҳаммаси бир гўр,
Энг ёмони лекин ички ёв --
У қалбингга солиб ёлғон қўр
Қилур зимдан содда кўнглинг ов
Улуғбекнинг даври давронин
Кўролмаган кўп ички рақиб,
Диллардаги заҳри илонни
Тилларида ширин кўрсатиб,
Олим -- шоҳга айладилар қасд
Абдулатиф орқали эвоҳ!
Зўр олимдан айрилди миллат,
Наинки биз,
Бу улкан дунё!
Парчаланди яна мамлакат
Талашдилар тахт деб хеш -- табор
Бундан фойда кўрмади миллат,
Фақат бўлди улкан юрт абгор!
Хонликларга бўлиниб Турон
Бир -- бировни тушунмай ўтди,
Бундан бўлиб наҳанглар шодон,
Бирин -- кетин ўлжани ютди...

Ҳаммасидан ўтди,
Ўтди кейинги --
Мустамлака ҳамда

Қарамлик,
Сўзда бизлар эдик "эркин, ҳур"
Асли —
Ҳар бир қадам эди
Ўлчамлик!
Мамлакат бўлса бир чаманзор —
гуллан,
Фуқаролар — турфа гуллари —
Яъники, раъною, ялшизу, суман —
Парваришлаш лозим эди уларни!
У тузум — чи,
Қабиҳ тузумда миллат —
Гулларин саралаб юлиб отдилар.
Нопок кирдикорни
Хаспўшлани мақсад —
Туҳматни тош қилиб бошга отдилар,
Гуноҳи не эди
Фитрат, Чўлпоннинг
Миллатнинг сарвари —
Акмал, Файзулло,
Олтин қалам соҳиби —
Усмон, Қодирий!..
Барчаси бўлди — ку
Туҳмат қурбони,
Эсласам,
Юракни ғам янчар эвоҳ!...
У кунлар ўтиб кетди — ю,
Лекин —
Кўнгилларни эзар фироғи.
Баён этмак қийин
У кунлар шарҳин,
Қалбларни куйдирар,

Оловли доғи!
Уларнинг заррача
Йўқ эди айби,
"Туноҳи" -- шу юртни
Жондан севмаклик.
Мустақиллик, дея тепарди қалби,
"Айби" эди ҳурриятни
Талаб этмаклик.
Шунга, ахир айтинг, равоми ўлим
Шунга ахир равоми --
Қирғин солмоқлик?
Бу қандай қабоҳат,
Бу қандай зулм? --
Мардларидан юртни
Жудо этмоқлик?!
Бир эмас,
Ўн эмас,
Улар эди кўп!
Барисига чанг солди
Ясама тузум.
Отдилар,
Осдилар -- ҳар жойда тўп-тўп --
Шаҳидлардан ясаб уюм ва уюм.
Шундан, юртимизда мавжуддир
бугун --
Шаҳидлар хиёбони,
Хотира боғлар.
Машгуоҳда бўлсанг,
Хоҳ кундуз, хоҳ тун
Боқар,
Ғойибона сенга
Маънос нигоҳлар!...

Шаҳидлар хиёбони —
Тошкенти азим...

Эгиб бош,
Тўкиб ёш бунда кезаман,
Сувнинг шовуллашимас,
Шаҳидлар сасин —
Эшитиб,
Рўй берган ҳолни сезаман!
Ўша тун,
Ўлим билан бўлиб юзма — юз —
Улар,
Истиқлол деб тикдилар жонни,
Тик туриб,
Тик боқиб
Ва юммасдан кўз
Ерга оқиздилар симобдай қонни!
Уларнинг ҳар бири —
Миллат ғурури,
Арслон юракли мардлари эди.
Дилларида фақат
Ватаннинг меҳри
Мустақиллик —
Орзу, дардлари эди.
Шерлар жон бердилар
Шу кунларни деб,
Шу азиз ўлка
Бўлсин, деб обод.
Улар тер тўқдилар
Миллат ғамин еб,
Ниятлари —
Халқни

Кўрмоқлик озо.
Гарчи,
Улар бугун
Орамизда йўқ,
Руҳи жорийлари
Борар олд сафда.
Шаҳидга ўлимнинг алоқаси йўқ,
Улар —
Тириклардан тирик ҳамиша!

Тўкилган жавҳар қон
Бекор кетмади,
Ердан униб чиқди лолалар бўлиб,
Юртим ғурурини поймол этмади,
Пайт келди,
Орзулар ушалди кулиб.
Ўтган асрнинг
Тўқсон биринчи йили,
Халқнинг иродасин
Этиб намоён,
Жасур йўлбошчимиз миллатга қараб
— Биз — мустақил! — деб этаркан
эълон,
Ҳамма қувончдан тош қотди бир дам,
Кўп йиллик орзулар чиқди деб рўёб.
Ким кулар,
Севинчдан қай бир кўзда нам,
Баъзилар ишонмай деди —
"Бу рўё".
Йўқ, рўё эмас бу,
Синмас ҳақиқат,

Шу кундан бошлаб
Биз
Бўлдик мустақил,
Шу кундан халқ озода,
Озода — мамлакат.
Қадамни таппадик
Эркин ҳам дадил!
Чўлпон айтганидай,
Халқ — куч, халқ — денгиз!
Унга зарур фақат довжурак дарға!
Шунда ҳар қадамдан
Қолар ўчмас из,
Етти ўлчаб,
Бир кесиб
Борилар олға!
Минг шукр,
Ҳумой
Қанотлари остида
Мустақил Ватанда таппаймиз қадам
Тенгларга тенгмизу,
Тилдир ўзбаки,
Ҳамкорга ҳамкормиз,
Дўстга муаззам!

Эй,
Менинг эркиним,
Озодим — Ватан,
Сенга фидо бўлсин,
Садқа жону тан!
Энди сен тоабада,
Хурсан,
Сулувсан,

Юрагимга солиб
Илҳом, гулу, сап ---
Пегас қанотига
Уч, деб қистайсан,
Сени куйлашимни
Мангу истайсан.
Сўзларингни мудом олдим,
Оламан.
Бугун васфингни мен
Куйга соламан...

Она Турон!
Эй қадимий юрт,
Куйлаб ўтди сени шуаро.
Бирин Кешни мақтаса хушнуд,
Бирин ҳушин олди Бухоро!
Анджонни ---
Деб, анда жоним,
Наво этди нозик таъб Бобир
Самарқанду Термиз, Хивани
Мадҳ айлади сон мингта шоир!
Эл ва тилни кўтарди кўкка
Назм аҳлининг пири Алишер
Дўстлик ишин дилгомир этиб,
Ўзга халққа кўрсатди меҳр.
Ҳурматлайди шу важдан дунё,
Шарқу ғарбда -- Навоий машҳур.
Бу -- бизга бахш этар завқ -- сафо
Бу -- биз учун бағишлар ғурур
Бирдан бўлиб тасодиф агар,
Тирилганда бетимсол шоир

Битар эди достону шеърлар
Юртим,
Сенинг шаънингга доир!
Мустақиллик даврида не — не
Рўй берди — ку улкан ўзгариш,
Аввалдаги шахру қишлоқни
Бир кўришда қийиндир таниш.
Бош кентимиз — азим Тошкентни
Таърифлашга бугун тил ожиз,
Бўйи ўсиб, кенгайди эни
Мумфарш йўллар кафт каби текис.
Кўзни олар оппоқ бинолар —
Ичу теши бирхилда гўзал.
Саройлармас — сулув зеболар —
Табассум — ла ўқир байт газал!
Пойтахтдаги бош майдонимиз
Майдон эмас — осмондир осмон
Улуғ сиймо — онажонимиз
Қутлар элни бўлинг деб омон
Шундан, бунда ташриф буюрган —
Таъзим айлаб, эъзозлар уни
У онадир,
У — жорий Ватан!
Ушбу майдон —
Ватан меҳвари!..

Бугун Амир Темур майдонин
Кўрки — ўзга,
Очар баҳридил.
Темур миниб саман отини
Мамнун боқар —
Муроди ҳосил.

Кузатмоқда Сароймулкхоним
Жаҳонгирни оппоқ саройдан,
О, оқ бино бунча сен — ойдин,
Сулувликда ўтасан ойдан.
Тошкент шунча ўзгарган,
Гўё —
Эртақдаги афсона шаҳар.
Ер ости йўл рўёдир рўё,
Хиёбонлар сочар мушк — анбар.
Осмон ўпар кўприклар — улкан,
Яқин қилур узоқ йўлингни.
Ҳайдовчилар тили бол қанддай,
Кўтаради лутфи кўнглингни...
Бир Тошкентмас,
Ҳамма ерда ҳам
Янгиликка ошён тўрт томон.
Қишлоқлару овул, даҳада
Қурилишлар этади давом.
Қоровулбозор чўлида бугун
Нефт заводи турибди ишлаб,
Унда ёшлар бўлиб шод — мамнун,
Кўп ҳунарни олмиш эгаллаб.
Асакада барпо этилган
Автозавод мўъжиза ўзи!
Бундан чиққан автоуловга
Харидордир бутун ер юзи.
Энг қимматли маъданларга бой
Қизилқумнинг тошу тупроғи,
Шундан олмиш корхоналар жой —
Бўлиб юртнинг кўрки, маёғи!
Асл олтин,
Қора, оқ олтин

Бариси ҳам бу юртда кўндир.
Олтинлардан энг қимматлиси
Чин олтини — одами хўндир.
Қурмоқлигу
Яратмоқ шундан,
Шундан эрур барча ободлик,
Ҳечким қочмас бунда меҳнатдан,
Меҳнат боис юртимда шодлик!
О, ҳазилми, тоғларни тешиб,
Барпо этмоқ кенг равон йўлни.
Бунинг учун ишлатмоқ лозим
Ақлу шуур,
Юрагу қўлни.
Мўъжизаку қамчиқ довони,
Қатнов тинмас куну тун бундан
Улаб юртни,
Улаб дунёни
Карвон ўтар
Ўтади шундан!...

...

О, истиқлол,
Бу -- сен туфайли,
Сен туфайли ютуқлар лак - лак,
Халқининг бунга бўлмаса майли
Ошармиди амалга тилак!
Авто йўллар қургач бетимсол
Чегдан туриб айтишди:
-- Лекин,
Темир йўллар қурмоқ кўн маҳол,
Сизлар учун бу юмуш қийин.
Бу гапларни айтганлар бугун
Пушаймонда,

Типлаганлар мум.
Нукус бўлди Тошкентга яқин,
Поезд қатнар --
Кесиб Қизилқум!
Булар нима,
Тоғлар оралаб,
Опиб не -- не баланд доводан,
Гузор ҳамда Бойсунга қараб
Поезд елар Тошкент томондан.
Сурхоннинг қир, адир, чўллари
Обод бўлиб, гуллаб яшнарлар.
Янги конлар очар кўзларин,
Пайдо бўлар янги шаҳарлар,
Булар орзу эди кўн йиллаб,
Юзга чиқди ҳурлик туфайли
Бунга доно раҳбардир сабаб --
Йўли порлоқ - нурлик туфайли!

Қисқа фурсат ичида шунча
Ютуқлар кўн,
Қувончлар улкан,
Барисини бир ерга қуйсанг
Бўлар денгиз,
Йўқ, йўқ океан!
Ҳамма билур --
Аён ҳақиқат.
Бу юрт қадим --
Жуда ҳам қадим.
Тарихидир
Қаватма -- қават --
Йилномалар --

Нодир ва азим!
О, синчиклаб ўқисанг,
Унда
Урф — одатлар этилган баён.
Ўқи, ойдин бўлади шунда
Халқ турмуши ойнадай аён.
Ўзбек — асли бағри кенг эл, халқ,
Кучли унда одоб — андиша.
Унга тенгдир катта — кичик ҳам
Қадрлайди дўстни ҳамиша.
У билимга ҳамиша чанқоқ,
Илм дея чекар риёзат.
Ҳақни севиб,
У дер "оқни оқ",
Кучли унда меҳру оқибат!
Шу боисдан минг йил олдин ҳам
Чиққан кўшлаб олим — уламо,
Ердан туриб ташлаган қадам,
Қуёшу ой, юлдузлар аро.
Беруний ҳам Хоразмийнинг
Кашфи яшар ҳаётда ҳамон.
Ибн Сино хизматларини
Унутмас ҳеч замину замон!
Бухорийлар ислом илмига
Илм қўшди — қойил араблар!
Шу боисдан ўзбек элига
Хайрихоҳдир ҳамма тарафлар!
Бежиз, ахир Тошкенти азим,
Аталмади "Ислом пойтахти"
Бутун ҳамда қадим ул айём —
Кучли бўлган диннинг ҳурмати.
Лекин ўтган тузумда, аттанг,

Поймол бўлди баъзи урф -- одат.
Тақводорнинг ҳоли бўлиб танг,
Ноҳақ тортди азоб -- уқубат.
Қутлуғ, азиз кўп қадамжолар
Эшиги берк, бўлди хор -- хароб.
Эсланмади ўтган даҳолар,
Чангга ботди масжиду меҳроб.
Мустақиллик даврида, шукур,
Улуғланди улуғлар шаъни,
Баҳоуддин Нақшбанд ётган ер --
Бўлди юртнинг обод гулшани!

Водий, воҳа, шаҳру қишлоқда
Шод этилди ўтганлар руҳи,
Бундан кўнгил олади баҳра,
Томир отар дилнинг шукуҳи!
Бугинамас,
Кўплаб обида,
Таъмирланиб, бўлди навқирон.
Улар энди -- янги хилқатда,
Кўрганларни қолдирар ҳайрон.
Бугун кезиб хорижлик сайёҳ --
Бухорою, Хива, Самарқанд,
Барисига бўлмоқда гувоҳ,
Саёҳатдан мамнун, шод хурсанд.
Шундан, доим келиб меҳмонлар
Юртимизни айлар томоша.
Маъқул тушар қанд, ҳолва, нонлар,
Юртга олиб кетарлар совға.
Шодланамиз биз ҳам -- мезбонлар,
Биз -- азалдан меҳмондўст халқмиз.

Ризқ кўшар,
Келса меҳмонлар,
Шунга одат айлаган шарқмиз!
Бухорода бўлса сайёҳлар
Гумбазларга боқур ҳангу манг.
Сайрдан туйиб завқу сафолар,
Бош тебратиб тинглар куй -- оҳанг.
Бу ерда кўп қадим обида,
Таърифлари билмасдан сарҳад,
Барча эгиз, ака -- укадай --
Иморатлар кўтармоқда қад.
Ушбу улкан маданий марказ --
Барпо бўлди яқин орада.
Бу кенг майдон бўлиб мудом сабз
Берар оро -- зеб Бухорога,
Бир томонда амфитеатр,
Мовий қаддин чўзган самога.
Бир томонда улкан театр --
Ҳалқни чорлар зўр томошага.
Ўртадаги обида -- ҳайкал
Бухоронинг тошдаги рамзи,
Бу санъатдир, санъатки гўзал,
Аксин тошган асрлар файзи.
Унга боқсанг шу юрт тарихи
Кўз олдинда бўлур намоёп.
Ҳодисаю воқеа шарҳи
Бари -- бари бундадир аён.
Бухорзода ўтган буюклар
Қараб турар тирикдай гуё.
Адоғида зару зеварлар --
Кўзни олиб таратар зиё!
Мана, бобо невараси -- ла

Ўтказмоқда мангуға кўчат
Бола ўсиб,
Ўз бобосидай
Меҳнатни у билади зийнат!
Биздан кейин, албат, келажак --
Қолар аниқ, ишопчи қўлда
Ватан яшнар яна ҳам, демак --
Авлод борар шу ойдин йўлдан!
Тилла туғдай ҳайкал --- обида
Ҳайкал эмас тошдаги дoston,
Дoston битмак лозим бу ҳақда,
Ўқиганлар қолар лол- ҳайрон.
Нек ишларни бўлмайди ўлчаб,
Ва унга кам ҳар қандай баҳо
Синдиrolмас уларни масштаб
Бебаҳодир бари, бебаҳо!
Мустақиллик -- ҳурлик даврида
Қилинган иш --- азимдан азим
Сўз етмайди,
Сўз таърифига,
Келтиrolмас мақтовин назм.
Мен қаламга суяшиб,
Бу тонг,
Дил изҳорим айладим баён.
Бахтиёрман, ахир бу ҳолдан,
Яйрамоқда
Жисму жон шодон!
Булар бари -- Истиқлол боис,
Илҳом солган қалбимга ҳам -- у,
Тўлқин урар ҳаёжону ҳис,
Пўртанадир юракда -- туйғу!
Шу ҳолатда,

Тик туриб мудом
Истиқлолга қилурман таъзим.
Мен хурсандман
Кўкрагим кериб,
Олқиш дейман сенга Ватаним!
Шу ҳолатда,
Шу ҳолда туриб
Юртбошига айтурман раҳмат,
Сиз Ватанга
Бердингиз олиб
Жасорат — ла
Мангу шон — шухрат!
Ҳар нек ишнинг
Бор вақт — соати,
Ечилади келганда фурсат.
Фурсат келгач,
Ўша заҳоти
Восил бўлур энг эзгу мақсад.
Шундай кечди
Ўзбекистонда
Ҳақиқатнинг юза чиқиши.
Не бўларди ҳолимиз,
Унда,
Чиқмаганда сиздай мард киши!
Қанча раҳмат,
Олқиш айтсак оз
Шаънингизга эй азиз инсон!
Сиз сабабли ишлар борур соз,
Мамлакат — тинч,
Улус — фаровон.
Ўтган йиллар
Кўҳна тарих — чун

Узоқ эмас, қисқа бир фурсат,
Юмушларнинг кўлами узун,
Юксак эрур ҳар ишда суръат!
Бизни кутар қанча улкан иш
Ҳали катта ниятлар олдда,
Ҳали олдда улғайиш, ўсиш —
Дарахт бўлур
Ёш ниҳол — новда.
Режалар мўл,
Бари бўлиб ҳал,
Ва янада гуллайди
Ватан!
Бизга ҳеч ким
Беролмас ҳалал
Чунки,
Халқу
Давлатдир
Яктан!

Мана,
Сени куйлаб
Эркин, ҳур
Осмонингда учдим,
Истиқлол.
Парвозимдан қониб,
Шод, масрур —
Она — юртни қучдим,
Истиқлол!
Қайда бўлмай,
Байрам нафаси —
Эсиб, элни
Айлаган хушнуд.

Ҳамма ерда
Тўй нашидаси —
Янграр дойра,
Карнай, сурнай, уд...
Шундай пайтда
Аҳли шуаро
Байтлар тизмай
Ўтирарми тинч,
Ижодкорга
Бу дам — бебаҳо,
Илҳом солар
Қалбларга севинч.
Бу сўзларим
Якунмас асло,
Бу мавзута яна қайтаман,
Умрим қанча
Билмасман аммо,
То тирикман,
Мадҳинг айтаман!..

Июль—август, 2011—йил.



*Buyuk istiqloqlarning shonli
yigirma yilligiga bag'ishlayman.*

IZHOR
(doston—qasida)

Ey, zamonu asrlar osha --
Ulkan orzu bo'lib kelgan,
Dengiz bo'lib, ko'pirib tosha --
Qallda epkin bo'lib elgan,
Muqanna ham Torobiylarning
Dilidagi o'tu alanga --
Gurullagan, gurullab yonib
Qudrat bergan ushbu
Vatanga --
O'zing axir Humosan -- hurlik!
Aytgim keldi senga qasida,
Sen tufayli
Yuraklar -- nurlik,
Bu -- dil izhorim,
Aslida --
Muborak to'y faslida!..

Ey, dunyoning qadim vatani --
Baqtriya, Kushon, Turonim,
Sen xalqimning joni ham tani,
Yengilmagan omon -- omonim,
Kurashdi -- ku sen deb
To'maris,
Halok etdi zol yovni Shiroq,
Jon berdi -- yu,

Bermadi yurtni,
Qay birini so'ylayin bu choq...
Kayxusravu Iskandar, Doro
Kelib,
Etdi nima karomat,
Ko'rib Samarqandu,
Ko'rib Buxoro
Suqi ketib dedi:
"Alomat!"...
Bu bosqinlar
Bo'ldi bardavom,
Bunda keldi mo'g'ul, arablar,
Ko'zlarini tikdi biz tomon
Janubu g'arb,
Shimol taraflar.
O, u paytlar el edi tarqoq —
Har tarafda xonu amirlik,
Bo'linganning ahvoli chatoq —
Bo'lur,
Yurtda bo'lmasa birlik.
Shu boisdan mo'g'ul bosqini
Yurti ezdi, ezdi uzoq payt...
Va quritdi ular yostig'in.
Amir Temur —
Egallagach taxt!
Buyuk Temur
Quvib yovlarni
Barpo etdi buyuk mamlakat,
Barham berdi to'siq g'ovlarni
Do'st tutundi urug'u elat!
Xo'p gulladi Keshu Samarqand,
Obod bo'ldi qadim Buxoro

Temur tuzgan buyuk mamlakat
Dovruq soldi keng olam aro.
Temur o'g'li Shoxruhdan so'ngra
Taxtga chiqqach Mirzo Ulug'bek,
Rivoj topib ilmu fan rosa
Nur taratdi oftobu oydek...
Dushmanlikning hammasi bir go'r,
Eng yomoni lekin ichki yov —
U qalbingga solib yolg'on qo'r
Qilur zimdan sodda ko'ngling ov
Ulug'bekning davru davronin
Ko'rolmagan ko'p ichki raqib,
Dillardagi zahri ilonni
Tillarida shirin ko'rsatib,
Olim — shohga ayladilar qasd
Abdulatif orqali evoh!
Zo'r olimdan ayrildi millat,
Nainki biz,
Bu ulkan dunyo!
Parchalandi yana mamlakat
Talashdilar taxt deb xesh — tabor
Bundan foyda ko'rmadi millat,
Faqat bo'ldi ulkan yurt abgor!
Xonliklarga bo'linib Turon
Bir — birovni tushunmay o'tdi,
Bundan bo'lib nahanglar shodon,
Birin — ketin o'ljani yutdi...

Hammasidan o'tdi,
O'tdi keyingi —
Mustamlaka hamda

Qaramlik,
So'zda bizlar edik "erkin, hur"
Asli ---
Har bir qadam edi
O'lchamlik!
Mamlakat bo'lsa bir chamanzor ---
gulshan,
Fuqarolar -- turfa gullari --
Ya'niki, ra'noyu, yalpizu, suman ---
Parvarishlash lozim edi ularni!
U tuzum -- chi,
Qabih tuzumda millat ---
Gullarin saralab yulib otdilar.
Nopok kirdikorni
Xaspo'shlash maqsad ---
Tuhmatni tosh qilib boshga otdilar,
Gunohi ne edi
Fitrat, Cho'lponning
Millatning sarvari ---
Akmal, Fayzullo,
Oltin qalam sohibi ---
Usmon, Qodiriy!..
Barchasi bo'ldi -- ku
Tuhmat qurboni,
Es lasam,
Yurakni g'am yanchar evoh!...
U kunlar o'tib ketdi --- yu,
Lekin --
Ko'ngillarni ezar firog'i.
Bayon etmak qiyin
U kunlar sharhin,
Qalblarni kuydirar,

Olovli dog'il
Ularning zarracha
Yo'q edi aybi,
"Gunohi" -- shu yurtni
Jondan sevmaklik.
Mustaqillik, deya tepardi qalbi,
"Aybi" edi hurriyatni
Talab etmaklik.
Shunga, axir ayting, ravomi o'lim
Shunga axir ravomi --
Qirg'in solmoqlik?
Bu qanday qabohat,
Bu qanday zulm? --
Mardlaridan yurtni
Judo etmoqlik?!
Bir emas,
O'n emas,
Ular edi ko'p!
Barisiga chang soldi
Yasama tuzum.
Otdilar,
Osdilar -- har joyda to'p -- to'p --
Shahidlardan yasab uyum va uyum.
Shundan, yurtimizda mavjuddir
bugun --
Shahidlar xiyoboni,
Xotira bog'lar.
Mangugohda bo'lsang,
Xoh kunduz, xoh tun
Boqar,
G'oyibona senga
Ma'yus nigohlar!...

Shahidlar xiyoboni — Toshkenti azim...
Egib bosh,
To'kib yosh bunda kezaman,
Suvning shovullashimas,
Shahidlar sasin —
Eshitib,
Ro'y bergan holni sezaman!
O'sha tun,
O'lim bilan bo'lib yuzma — yuz —
Ular,
Istiqlol deb tikdilar jonni,
Tik turib,
Tik boqib
Va yummasdan ko'z
Yerga oqizdilar simobday qonni!
Ularning har biri —
Millat g'ururi,
Arslon yurakli mardlari edi.
Dillarida faqat
Vatanning mehri
Mustaqillik —
Orzu, dardlari edi.
Sherlar jon berdilar
Shu kunlarni deb,
Shu aziz o'lka
Bo'lsin, deb obod.
Ular ter to'kdilar
Millat g'amin eb,
Niyatlari —
Xalqni
Ko'rmoqlik ozod.

Garchi,
Ular bugun
Oramizda yo`q,
Ruhi joriylari
Borar old safda.
Shahidga o`limning aloqasi yo`q,
Ular --
Tiriklardan tirik hamisha!

To`kilgan javhar qon
Bekor ketmadi,
Yerdan unib chiqdi lolalar bo`lib.
Yurtim g`ururini poymol etmadi,
Payt keldi,
Orzular ushaldi kulib.
O`tgan asrning
To`qson birinchi yili,
Xalqning irodasin
Etib namoyon,
Jasur yo`lboshchimiz millatga qarab
— Biz — mustaqil! — deb etarkan e`lon,
Hamma quvonchdan tosh qotdi
bir dam,
Ko`p yillik orzular chiqdi deb ro`yob.
Kim kular,
Sevinchdan qay bir ko`zda nam,
Ba`zilar ishonmay dedi --
"Bu ro`yo".
Yo`q, ro`yo emas bu,
Sinmas haqiqat,
Shu kundan boshlab

Biz
Bo'ldik mustaqil,
Shu kundan xalq ozod,
Ozod -- mamlakat.
Qadamni tashladik
Erkin ham dadil!
Cho'lpon aytganiday,
Xalq -- kuch, xalq -- dengiz!
Unga zarur faqat dovyurak darg'a!
Shunda har qadamdan
Qolar o'chmas iz,
Etti o'lchab,
Bir kesib
Borilar olg'a!
Ming shukr,
Humoy
Qanotlari ostida
Mustaqil Vatanda tashlaymiz qadam
Tenglarga tengmizu,
Tildir o'zbaki,
Hamkorga hamkormiz,
Do'stga muazzam!

Ey,
Mening erkinim,
Ozodim -- Vatan,
Senga fido bo'lsin,
Sadqa jonu tan!
Endi sen toabad,
Hursan,
Suluvsan,

Yuragimga solib
Ilhom, g'ulu, san --
Pegas qanotiga
Uch, deb qistaysan,
Seni kuylashimni
Mangu istaysan.
So'zlaringni mudom oldim,
Olamani.
Bugun vasfingni men
Kuyga solaman...

Ona Turon!
Ey qadimiy yurt,
Kuylab o'tdi seni shuaro.
Biri Keshni maqtasa xushnud,
Birin hushin oldi Buxoro!
Andijonni —
Deb, anda jonim,
Navo etdi nozik ta'b Bobir
Samarqandu Termiz, Xivani
Madh ayladi son mingta shoir!
El va tilni ko'tardi ko'kka
Nazm ahlining piri Alisher
Do'stlik ipin diltomir etib,
O'zga xalqqa ko'rsatdi mehr.
Hurmatlaydi shu vajdan dunyo,
Sharqu g'arbda — Navoiy mashhur.
Bu — bizga baxsh etar zavq — safo
Bu — biz uchun bag'ishlar g'urur
Birdan bo'lib tasodif agar,
Tirilganda betimsol shoir

Bitar edi dostonu she'rlar
Yurtim,
Sening sha'ningga doir!
Mustaqillik davrida ne -- ne
Ro'y berdi -- ku ulkan o'zgarish,
Avvaldagi shahru qishloqni
Bir ko'rishda qiyindir tanish.
Bosh kentimiz -- azim Toshkentni
Ta'riflashga bugun til ojiz,
Bo'yi o'sib, kengaydi eni
Mumfarsh yo'llar kaft kabi tekis.
Ko'zni olar oppoq binolar --
Ichu teshi bixilda go'zal.
Saroylarmas -- suluv zebolar --
Tabassum -- la o'qir bayt g'azal!
Poytaxtdagi bosh maydonimiz
Maydon emas -- osmondir osmon
Ulug' siymo -- onajonimiz
Qutlar elni bo'ling deb omon
Shundan, bunda tashrif buyurgan --
Ta'zim aylab, e'zozlar uni
U onadir,
U -- joriy Vatan!
Ushbu maydon --
Vatan mehvari!..

Bugun Amir Temur maydonin
Ko'rki -- o'zga,
Ochar bahridil.
Temur minib saman otini
Mamnun boqar --
Murodi hosil.

Kuzatmoqda Saroymulkxonim
Jahongirni oppoq saroydan,
O, oq bino buncha sen — oydin,
Suluvlikda o'tasan oydan.
Toshkent shuncha o'zgargan,
Go'yo —
Ertakdagi afsona shahar.
Yer osti yo'l ro'yodir ro'yo,
Xiyobonlar sochar mushk — anbar.
Osmon o'par ko'priklar — ulkan
Yaqin qilur uzoq yo'lingni.
Haydovchilar tili bol qandday,
Ko'taradi lutfi ko'nglingni...
Bir Toshkentmas,
Hamma yerda ham
Yangilikka oshyon to'rt tomon.
Qishloqlaru ovul, dahada
Qurilishlar etadi davom.
Qorovulbozor cho'lida bugun
Neft zavodi turibdi ishlab,
Unda yoshlar bo'lib shod — mamnun,
Ko'p hunarni olmish egallab.
Asakada barpo etilgan
Avtozavod mo'jiza o'zi!
Bundan chiqqan avtoulovga
Xaridordir butun yer yuzi.
Eng qimmatli ma'danlarga boy
Qizilqumning toshu tuprog'i,
Shundan olmish korxonalar joy —
Bo'lib yurtning ko'rki, mayog'i!
Asl oltin,
Qora, oq oltin

Barisi ham bu yurtda ko'pdir.
Oltinlardan eng qimmatlisi
Chin oltini — odami xo'pdir.
Qurmoqligu
Yaratmoq shundan,
Shundan erur barcha obodlik,
Hechkim qochmas bunda mehnatdan,
Mehnat bois yurtimda shodlik!
O, hazilni, tog'larni teshib,
Barpo etmoq keng ravon yo'lni.
Buning uchun ishlatmoq lozim
Aqlu shuur,
Yuragu qo'lni.
Mo'jizaku qamchiq dovoni,
Qatnov tinmas kunu tun bundan
Ulab yurtni,
Ulab dunyoni
Karvon o'tar
O'tadi shundan!...

O, istiqlol,
Bu — sen tufayli,
Sen tufayli yutuqlar lak — lak,
Xalqning bunga bo'lmasa mayli —
Osharmidi amalga tilak!
Avto yo'llar qurgach betimsol
Chetdan turib aytishdi:
— Lekin,
Temir yo'llar qurmoq ko'p mahol,
Sizlar uchun bu yumush qiyin.
Bu gaplarni aytganlar bugun
Pushaymonda,

Tishlaganlar mum.
Nukus bo'ldi Toshkentga yaqin,
Poezd qatnar —
Kesib Qizilqum!
Bular nima,
Tog'lar oralab,
Oshib ne -- ne baland dovondan,
G'uzor hamda Boysunga qarab
Poezd yelar Toshkent tomondan.
Surxonning qir, adir, cho'llari
Obod bo'lib, gullab yashnarlar.
Yangi konlar ochar ko'zlarin,
Paydo bo'lar yangi shaharlar,
Bular orzu edi ko'p yillab,
Yuzga chiqdi hurlik tufayli
Bunga dono rahbardir sabab —
Yo'li porloq — nurlik tufayli!

Qisqa fursat ichida shuncha
Yutuqlar ko'p,
Quvonchlar ulkan,
Barisini bir yerga quysang
Bo'lar dengiz,
Yo'q, yo'q okean!
Hamma bilur —
Ayon haqiqat.
Bu yurt qadim —
Juda ham qadim.
Tarixidir
Qavatma — qavat —
Yilnomalar —

Nodir va azim!
O, sinchiklab o'qisang,
Unda
Urf--odatlar etilgan bayon.
O'qi, oydin bo'ladi shunda
Xalq turmushi oynaday ayon.
O'zbek -- asli bag'ri keng el, xalq,
Kuchli unda odob--andisha.
Unga tengdir katta - kichik ham
Qadrlaydi do'stni hamisha.
U bilimga hamisha chanqoq,
Ilm deya chekar riyozat.
Haqni sevib,
U der "oqni oq",
Kuchli unda mehru oqibat!
Shu boisdan ming yil oldin ham
Chiqqan ko'plab olim -- ulamo,
Yerdan turib tashlagan qadam,
Quyoshu oy, yulduzlar aro.
Beruniy ham Xorazmiyning
Kashfi yashar hayotda hamon.
Ibn Sino xizmatlarini
Unutmas hech zaminu zamon!
Buxoriylar islom ilmiga
Ilm qo'shdi -- qoyil arablar!
Shu boisdan o'zbek eliga
Xayrixohdir hamma taraflar!
Bejiz, axir Toshkenti azim,
Atalmadi "Islom poytaxti"
Bugun hamda qadim ul ayyom
Kuchli bo'lgan dinning hurmati.
Lekin o'tgan tuzumda, attang,

Poymol bo'ldi ba'zi urf -- odat.
Ta'qvodorning holi bo'lib tang,
Nohaq tortdi azob -- uqubat.
Qutlug', aziz ko'p qadamjolar
Eshigi berk, bo'ldi xor -- xarob.
Eslanmadi o'tgan daholar,
Changga botdi masjidu mehrob.
Mustaqillik davrida, shukur,
Ulug'landi ulug'lar sha'ni,
Bahouddin Naqshband yotgan yer --
Bo'ldi yurtning obod gulshani!

Vodiy, vo'ha, shahru qishloqda
Shod etildi o'tganlar ruhi,
Bundan ko'ngil oladi bahra,
Tomir otar dilning shukuhi!
Buginamas,
Ko'plab obida,
Ta'mirlanib, bo'ldi navqiron.
Ular endi -- yangi xilqatda,
Ko'rganlarni qoldirar hayron.
Bugun kezib xorijlik sayyoh --
Buxoroyu, Xiva, Samarqand,
Barisiga bo'lmoqda guvoh,
Sayohatdan mamnun, shod xursand.
Shundan, doim kelib mehmonlar
Yurtimizni aylar tomosha.
Ma'qul tushar qand, holva, nonlar,
Yurtga olib ketarlar sovg'a.
Shodlanamiz biz ham -- mezbolar,
Biz -- azaldan mehmondo'st xalqmiz.

Rizq ko'payar,
Kelsa mehmonlar,
Shunga odat aylagan sharqimiz!
Buxoroda bo'lsa sayyohlar
Gumbazlarga boqur hangu mang.
Sayrdan tuyib zavqu safolar,
Bosh tebratib tinglar kuy -- ohang.
Bu yerda ko'p qadim obida,
Ta'riflari bilmasdan sarhad,
Barcha egiz, aka -- ukaday --
Imoratlar ko'tarmoqda qad.
Ushbu ulkan madaniy markaz --
Barpo bo'ldi yaqin orada.
Bu keng maydon bo'lib mudom -- sabz --
Berar oro -- zeb Buxoroga,
Bir tomonda amfiteatr,
Moviy qaddin cho'zgan samoga.
Bir tomonda ulkan teatr --
Halqni chorlar zo'r tomoshaga.
O'rtadagi obida -- haykal
Buxoroning toshdagi ramzi,
Bu san'atdir, san'atki go'zal,
Aksin topgan asrlar fayzi.
Unga boqsang shu yurt tarixi
Ko'z oldingda bo'lur namoyon.
Hodisayu voqea sharhi
Bari -- bari bundadir ayon.
Buxorzoda o'tgan buyuklar
Qarab turar tirikday guyo.
Adog'ida zaru zavarlar --
Ko'zni olib taratar ziyo!
Mana, bobo nevarasi -- la

O'tkazmoqda manguga ko'chat
Bola o'sib,
O'z bobosiday
Mehnatni u biladi ziynat!
Bizdan keyin, albat, kelajak --
Qolar aniq, ishonchli qo'lda
Vatan yashnar yana ham, demak --
Avlod borar shu oydin yo'ldan!
Tilla tug'day haykal -- obida
Haykal emas toshdagi doston,
Doston bitmak lozim bu haqda,
O'qiganlar qolar lol -- hayron.
Nek ishlarni bo'lmaydi o'lchab,
Va unga kam har qanday baho
Sig'dirolmas ularni masshtab
Bebahodir bari, bebaho!
Mustaqillik -- hurlik davrida
Qilingan ish -- azimdan azim
So'z yetmaydi,
So'z ta'rifiq,
Keltirolmas maqtovin nazm.
Men qalamga suyanib,
Bu tong,
Dil izhorim ayladim bayon.
Baxtiyorman, axir bu holdan,
Yayramoqda
Jismu jon shodon!
Bular bari -- Istiqlo'l bois,
Ilhom solgan qalbinga ham -- u,
To'lqin urar hayojonu his,
Po'rtanadir yurakda -- tuyg'u!
Shu holatda,

Tik turib mudom
Istiqlolga qilurman ta'zim.
Men xursandman
Ko'kragim kerib,
Olqish deyman senga Vatanim!
Shu holatda,
Shu holda turib
Yurtboshiga ayturman rahmat,
Siz Vatanga
Berdingiz olib
Jasorat — la
Mangu shon — shuhrat!
Har nek ishning
Bor vaqt — soati,
Yechiladi kelganda fursat.
Fursat kelgach,
O'sha zahoti
Vosil bo'lur eng ezgu maqsad.
Shunday kechdi
O'zbekistonda
Haqiqatning yuza chiqishi.
Ne bo'lardi holimiz,
Unda,
Chiqmaganda sizday mard kishi!
Qancha rahmat,
Olqish aytsak oz
Sha'ningizga ey aziz inson!
Siz sababli ishlar borur soz,
Mamlakat — tinch,
Ulus — farovon.
O'tgan yillar
Ko'hna tarix — chun

Uzoq emas, qisqa bir fursat,
Yumushlarning ko'lamini uzun,
Yuksak erur har ishda sur'at!
Bizni kutar qancha ulkan ish
Hali katta niyatlar oldda,
Hali oldda ulg'ayish, o'sish —
Daraxt bo'lur
Yosh nihol — novda.
Rejalar mo'l,
Bari bo'lib hal,
Va yanada gullaydi
Vatan!
Bizga hech kim
Berolmas xalal
Chunki,
Xalqu
Davlatdir
Yaktan!

Mana,
Seni kuylab
Erkin, hur
Osmoningda uchdim,
Istiqlol.
Parvozimdan qonib,
Shod, masrur —
Ona — yurtini quchdim,
Istiqlol!
Qayda bo'lmay,
Bayram nafasi —
Esib, elni
Aylagan xushnud.

Hamma yerda
To'y nashidasi —
Yangrar doyra,
Karnay, surnay, ud...
Shunday paytda
Ahli shuaro
Baytlar tizmay
O'tirarmi tinch,
Ijodkorga
Bu dam — bebaho,
Ilhom solar
Qalblarga sevinch.
Bu so'zlarim
Yakunmas aslo,
Bu mavzuga yana qaytaman,
Umrin qancha
Bilmasman ammo,
To tirikman,
Madhing aytaman!..

Iyul—avgust, 2011—yil.



БУХОРОЛИК БУЮКЛАР

ТУРКОН ХОТУН

Мен яшадим шу Ватан деб, шу юрт деб
Бухорою Варахшони яшнатдим.
Сулҳлар туздим ўз халқимнинг гамин еб,
Зар – зевар – ла душман кўзин ўйнатдим.

Тўхтатмадим ҳарбий машқни бир фурсат,
Этик кийиб, қилич тақиб, миндим от.
Лоқайд бўлмай, ҳушёр турдим ҳамма пайт
Бўлсин дея юртда доим тинч ҳаёт.

Ўтиб кетди гарчи не – не замонлар,
Ўтди қанча хонлар, даври давлонлар,
Номим яшар Хотун подшо деб ҳамон!

Боқарканман, гоҳ Варахша, гоҳ Арқдан,
Руҳим эриб кетар қувончу завқдан,
Юртни кўриб озода, обода, беармон!



BUXOROLIK BUYUKLAR

TURKON XOTUN

Men yashadim shu Vatan deb, shu yurt deb
Buxoroyu Varaxshoni yashnatdim.
Sulhlar tuzdim o'z xalqimning g'amin yeb,
Zar — zavar — la dushman ko'zin o'ynatdim.

To'xtatmadim harbiy mashqni bir fursat,
Etik kiyib, qilich taqib, mindim ot.
Loqayd bo'lmay, hushyor turdim hamma payt
Bo'lsin deya yurtida doim tinch hayot.

O'tib ketdi garchi ne — ne zamonlar,
O'tdi qancha xonlar, davru davronlar,
Nomim yashar Xotun podsho deb hamon!

Boqarkanman, goh Varaxsha, goh Arkdan,
Ruhim erib ketar quvonchu zavqdan,
Yurti ko'rib ozod, obod, bearmon!



ИБН СИНО

Уч кам олтмиш йил япадим бу оламда
Инсоф билан айтганда бу — мен учун кам.
Ваҳоланки, шифо топиб қўлларимда
Узоқ умр кўриб ўтди қанча одам.

Меҳдан сўнг ҳам амал қилиб китобимга
Шоғирдларим беморларга берди шифо.
Кимки қулоқ солган бўлса хитобимга,
Узоқ яшаб, бу дунёда кўрди сафо.

Ачинмайман, умрим қисқа кечганига,
Тиб осмонин ёруғ этдим бўлиб қамар,
Бор ҳаётим сарф айладим инсонларга.

Ачинмангиз, эй авлодлар сизлар ҳеч ҳам,
Ахир умрим қуёш каби узун кечар
Хизмат қилгум ҳали не — не замонларга!



IBN SINO

Uch kam oltmish yil yashadim bu olamda
Insof bilan aytganda bu — men uchun kam.
Vaholanki, shifo topib qo'llarimda
Uzoq umr ko'rib o'tdi qancha odam.

Mendan so'ng ham amal qilib kitobimga
Shogirdlarim bemorlarga berdi shifo.
Kimki quloq solgan bo'lsa xitobimga,
Uzoq yashab, bu dunyoda ko'rdi safo.

Achinmayman, umrim qisqa kechganiga,
Tib osmonin yorug' etdim bo'lib qamar,
Bor hayotim sarf ayladim insonlarga.

Achinmangiz, ey avlodlar sizlar hech ham,
Axir umrim quyosh kabi uzun kechar
Xizmat qilgum hali ne — ne zamonlarga!



МУҲАММАД НАРШАХИЙ

Бухоро тарихи бўлди ўй — зикрим,
Ёшлиқдан қизиқдим жозиб бу фанга.
Қалъаю қўрғонлар банд қилди фикрим,
Лол этди қадимий буюму танга.

Ўргандим юртимнинг қарич — қаричин,
Қаерда, қай йўсин кечган воқеа.
Ровийлар айтганин қайси рости чин,
Қай ҳолда рўй берган асл ҳодиса.

Аниқлаб ёзавердим, айлаб, бобма боб,
Ёзганларим бўлди пурмаъно китоб.
Бегараф туриб битдим, уни рост, холис.

Бухоро тарихин ёздим чин дилдан,
Бунга ҳам ошибди, кўринг, минг йилдан.
О, бугун боқийман, шу китоб боис!



MUHAMMAD NARSHAXIY

Buxoro tarixi bo'ldi o'y -- zikrim,
Yoshlikdan qiziqdim jozib bu fanga.
Qal'ayu qo'rg'onlar band qildi fikrim,
Lol etdi qadimiy buyumu tanga.

O'rgandim yurtimning qarich qarichin,
Qaerda, qay yo'sin kechgan voqea.
Roviylar aytganin qaysi rostu chin,
Qay holda ro'y bergan asl hodisa.

Aniqlab yozaverdim, aylab, bobma bob,
Yozganlarim bo'ldi purma'no kitob.
Betaraf turib bitdim, uni rost, xolis.

Buxoro tarixin yozdim chin dildan,
Bunga ham oshibdi, ko'ring, ming yildan.
O, bugun boqiyman, shu kitob bois!



УСТА БАҚО

Туrolмадим бир дам бекор,
Ишлаб, кўнглимни шод этдим.
Иморатлар қуриб бисёр,
Бухсрони обод этдим.

Минораи Калон эса
Бир маҳсули меҳнатларнинг,
Бу бинога ким тикилса,
Кўрар нозик санъатларни.

Тўпламадим олтину зар,
Қизиққанам бўлди — ҳунар.
Тоқдим фақат элда ҳурмат.

Шундан, уйғоқ мудом руҳим.
Давом этар ҳамон умрим —
Минор билан бирга ҳар вақт!



USTA BAQO

Turolmadim bir dam bekor,
Ishlab, ko'nglimni shod etdim.
Imoratlar qurib bisyor,
Buxoroni obod etdim.

Minorai Kalon esa
Bir mahsuli mehnatlarning,
Bu binoga kim tikilsa,
Ko'rar nozik san'atlarni.

To'plamadim oltinu zar,
Qiziqqanim bo'ldi -- hunar.
Topdim faqat elda hurmat.

Shundan, uyg'oq mudom ruhim.
Davom etar hamon umrim --
Minor bilan birga har vaqt!



МАҲМУД ТОРОБИЙ

Мўру—малахдайин ёв босиб келди,
Қишлоқлар тошталиб, таланди халқим.
"Қасос!" деб курашга шайладим элни
Дарё каби тошиб нафратим, қаҳрим.

Даҳнатли жанг бўлди душманга қарши,
Бухородан улоқтириб ташладик ёвни.
Бизни қувватлади Кармана, Қарши,
Қарнаб томон қочди кўп маккор ёғий.

Қанча қонлар оқиб қир-адирларда,
Аёвсиз олишув кечди йўлларда,
Оғир яраланиб шунда бердим жон.

Йўқ афсус қилмайман қутлуг ўлимдан,
Ёв билди, устунлик бизнинг қўлларда
Босқинчи бу юртда яшолмас омон!



MAHMUD TOROBIY

Mo'ru — malaxdayin yov bosib keldi,
Qishloqlar toptalib, talandi xalqim.
"Qasos!" deb kurashga shayladim elni
Daryo kabi toshib nafratim, qahrim.

Dahshatli jang bo'ldi dushmanga qarshi,
Buxorodan uloqtirib tashladik yovni.
Bizni quvvatladi Karmana, Qarshi,
Qarnab tomon qochdi ko'p makkor yog'iy.

Qancha qonlar oqib qir — adirlarda,
Ayovsiz olishuv kechdi yo'llarda,
Og'ir yaralanib shunda berdim jon.

Yo'q afsus qilmayman qutlug' o'limdan,
Yov bildi, ustunlik bizning qo'llarda
Bosqinchi bu yurtida yasholmas omon!



АҲМАД ДОНИШ

Файласуфми, муаррихми, муҳандис,
Ўз касб — корим тугал, аниқ айтолмам.
Кўпроқ бўлиб мадрасада мударрис,
Сабоқ бердим кеч тунлар ҳам ёқиб шам.

Кезиб дунё, кўрдим жануб шимолни,
Қайда бўлмай, юрту элни ўргандим.
Қизиқтирди ер шакли, кўк жамоли
Қайд айладим ўй — фикриму кўрганим.

Хизматим шу, ният эди бисёр хўп,
Бухорога Жайхунни бўлдим бурмоқ.
Буни, шукур, авлодларим этди ҳал.

Инсон ўтар бир кун яшаб кам ё кўп,
Энг муҳими — ҳаётда из қолдирмоқ,
Изим қолди — ёруғ мисли ой, зуҳал!



AHMAD DONISH

Faylasufmi, muarrixmi, muhandis,
O'z kasb — korim tugal, aniq aytolmam.
Ko'proq bo'lib madrasada mudarris,
Saboq berdim kech tunlar ham yoqib sham.

Kezib dunyo, ko'rdim janub shimolni,
Qayda bo'lmay, yurtu elni o'rgandim.
Qiziqtirdi yer shakli, ko'k jamoli
Qayd ayladim o'y — fikrimu ko'rganim.

Xizmatim shu, niyat edi bisyor xo'p,
Buxoroga Jayxunni bo'ldim burmoq.
Buni, shukur, avlodlarim etdi hal.

Inson o'tar bir kun yashab kam yo ko'p,
Eng muhimi — hayotda iz qoldirmoq,
Izim qoldi — yorug' misli oy, zuhal!



АБДУРАУФ ФИТРАТ

Азиз юртим, буюк Ватан — Туроним,
Сени деюб юракда жўшди қоним,
Кўриб сени, ёш чоғимда ғамдийда,
Ёшлар томиб кўзлар бўлди гирёним.

Сени суйдим ҳам отаму онам деб,
Шерларга кон бўлган гўзал ўлкам деб,
Ожизмассан, оқизмагин кўз ёшинг,
Олда кўркинг, сен бўлурсан кўркем деб.

Томирларда ахир Темур қони бор,
Қалбада сўнмас паҳлавонлар шони бор.
Байтлар ёздим "Албат бўлурмиз озод".

Айтганларим бўлди — кулиб истиқбол —
Бошинг узра порлар бутун Истиқлол.
Сен деб шаҳид бўлганимдан руҳим — шод!



ABDURAUF FITRAT

Aziz yurtim, buyuk Vatan -- Turonim,
Seni deyub yurakda jo'shdi qonim,
Ko'rib seni, yosh chog'imda g'amdiyda,
Yoshlar tomib ko'zlar bo'ldi giryonim.

Seni suydim ham otamu onam deb,
Sherlarga kon bo'lgan go'zal o'lkam deb,
Ojizmassan, oqizmagin ko'z yoshing,
Oldda ko'rking, sen bo'lursan ko'rkam deb.

Tomirlarda axir Temur qoni bor,
Qalbda so'nmas pahlavonlar shoni bor.
Baytlar yozdim "Albat bo'lurmiz ozod".

Aytganlarim bo'ldi — kulib istiqbol —
Boshing uzra porlar bugun Istiqlol.
Sen deb shahid bo'lganimdan ruhim — shod!



ФАЙЗУЛЛА ХЎЖАЕВ

Эҳ, ҳаётим мураккаб жуда,
Отам, гарчи Бухоролик бой,
Кўрдим, билдим амир даврида
Бизнинг ўлка бўлган қолоқ жой.

Мақсадимиз эди ислоҳот —
Маърифатли бўлсин қиз, йигит.
Гўзал кечсин бизда ҳам ҳаёт
Унга раҳна солмасин сарқит.

Тушунмагач бизни Олимхон,
Сиёсатда бўлдик кўп сарсон
Ва алдади бизни шўро ҳам.

Жоним бўлди ҳурликка қурбон,
Лекин руҳим энди шод чунон —
Биз эмасмиз ҳеч кимсадан кам!



FAYZULLA XO'JAEV

Eh, hayotim murakkab juda,
Otam, garchi Buxorolik boy
Ko'rdim, bildim amir davrida
Bizning o'lka bo'lgan qoloq joy.

Maqsadimiz edi islohot --
Marifatli bo'lsin qiz, yigit.
Go'zal kechsin bizda ham hayot
Unga rahna solmasin sarqit.

Tushunmagach bizni Olimxon,
Siyosatda bo'ldik ko'p sarson
Va aldadi bizni sho'ro ham

Jonim bo'ldi hurlikka qurbon,
Lekin ruhim endi shod chunon --
Biz emasmiz hech kimsadan kam!



САДРИДДИН АЙНИЙ

Бухоро бу қайнар чашма,
Зилол суви бўлмас тамом.
Олган саринг ҳеч камаймас
Сув сизиши этар давом.

Бу чашмадан ичдим қониб,
Ижод этдим — ёздим китоб.
Ёзган сари ёндим, ёниб
Авлодларга этдим хитоб:

Бухорони дўстлар, ёзинг,
Тошин териб, тупроқ қазинг,
У туганмас бой хазина!

Бу меҳнатдан чекманг алам,
Муродга етказар қалам,
Шундан топди бахт, камина!



SADRIDDIN AYNIIY

Buxoro bu qaynar chashma,
Zilol suvi bo'lmas tamom.
Olgan saring hech kamaymas
Suv sizishi etar davom.

Bu chashmadan ichdim qonib,
Ijod etdim — yozdim kitob.
Yozgan sari yondim, yonib
Avlodlarga etdim xitob:

Buxoroni do'stlar, yozing,
Toshin terib, tuproq qazing,
U tuganmas boy xazina!

Bu mehnatdan chekmang alam,
Murodga yetkazar qalam,
Shundan topdi baxt, kamina!



ДОМЛА ҲАЛИМ

"Шашмақом"га бўлдим шайдо,
Диллардан ўчмас ёлқини,
Куйлайвердим, авждан пайдо —
Бўлди "Бухоро тўлқини"

Мақоматлар хазинаким,
Туганмас зар, тиллолари.
Овозда моҳир бўлса ким,
Ортар унинг жилолари

Ортиқча ранг ҳожат эмас,
Мукаммаллик етади, бас —
Ҳуснин бузар зебу оро.

Унга мафтун ҳамон диллар,
Яшар яна минг — минг йиллар —
Баайни боқий Бухоро!



DOMLA HALIM

"Shashmaqom"ga bo'ldim shaydo,
Dillardan o'chmas yolgini,
Kuylayverdim, avjdan paydo ---
Bo'ldi "Buxoro to'lgini"

Maqomatlar xazinakim,
Tuganmas zar, tillolari.
Ovozda mohir bo'lsa kim,
Ortar uning jilolari

Ortiqcha rang hojat emas,
Mukammallik etadi, bas ---
Husnin buzar zebu oro.

Unga maftun hamon dillar,
Yashar yana ming --- ming yillar ---
Baayni boqiy Buxoro!



ОЛИМ ХЎЖАЕВ

Бошқа — бошқа ҳаёт ва сахна
Деганларни эшитганим бор.
Қачон ҳаёт, билинг, акс этса —
У сахнадир, бошқаси бекор.

Мен ўйнаган ролларни кўринг,
Ҳаётийдир, бари ҳаётий.
Навоийми ваё қирол Лир —
Дил титратар лутфу баёти

Ҳаёт — сахна, сахна ҳам ҳаёт,
Улар ахир ҳаёту мамот,
Иккиси ҳам асли эгизак!

Ажратмангиз уларни асло,
Ажратмоқлик — гуноҳдир, гуноҳ,
Иккисин ҳам бошқарар юрак!



OLIM XO'JAEV

Boshqa — boshqa hayot va sahna
Deganlarni eshitganim bor.
Qachon hayot, biling, aks etsa —
U sahnadir, boshqasi bekor.

Men o'ynagan rollarni ko'ring,
Hayotiydir, bari hayotiy.
Navoiymi vayo qirol Lir —
Dil titratar lutfu bayoti

Hayot — sahna, sahna ham hayot,
Ular axir hayotu mamot,
Ikkisi ham asli egizak!

Ajratmangiz ularni aslo,
Ajratmoqlik — gunohdir, gunoh
Ikkisin ham boshqarar yurak!



ХОТИРА – БОҚИЙ

СИЗ КУТГАН ЗАМОН КЕЛДИ

Таниқли шоир, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими, Ёзувчилар уюшмаси мукофоти совриндори, филология фанлари номзоди Тошпўлат Ҳамид ўнлаб назмий китоблар муаллифидир. У иш фаолиятини ўқитувчиликдан бошлаб, узоқ йиллар Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмасининг Бухоро вилоят бўлимини бошқарди. Сўнг вилоят газетаси бош муҳаррири, кейинчалик эса вилоят раҳбарларидан бири бўлиб фан, маориф, маданият ва маънавият соҳаларига мутасаддилик қилди. У қаерда ишлагасин, ҳамиша ёш ижодкорларга ғамхўрлик кўрсатиб, ўз маслаҳат ва мададини аямади. Шу сабаб, Навоий ва Бухородан етишиб, айни пайтда Тошкентда фаолият кўрсатаётган кўпгина етакчи адиблар ҳам Тошпўлат акани ўз устозлари сифатида эҳтиром билан тилга оладилар.

У вилоят раҳбари бўлиб ишлаганида, биз — ўша пайтдаги ёш ижодкорлар билан, ўз тенгдоши ёки яқин дўсти сифатида муомала қилар, баъзан эса ёлғиз қолганимизда ўша муҳит ва тузумдан норозилигини айтиб, ҳақиқий ижодкор учун тўла шароит, эркинлик, кенг ҳуқуқ йўқлигини, адабиёт — сиёсий майдонга айланганлигини, асарларга бадиият нуқтаи назаридан эмас, унинг

мавзусига қараб юзаки баҳо берилаётгани, жамиятдаги ошиб бораётган ноҳақликдап куйиниб гапирарди. Унинг юзи, кўзи ва сўзидан кўплар учун мўътабар ҳисобланган бундай юксак лавозимда ишлаган Тошпўлат ака учун азоблигини ҳис қилиб турардик.

Биз кутган замон, албатта келар, ўшанда бу вазифадан кетиб, эркин ижод қиламан ва ҳозирги мавжуд давр ҳақида катта асар ёзаман, бу асар ҳажвий бўлади, дерди у. Устознинг ўша сўзларини эслаб ва унинг ёрқин хотирасига бағишлаб ушбу битикни битдим.

Бугун ўтиб кўп йиллар,
Холис гапни айтайин.
Қийин бўлди ҳаммадан
Ушбу одамга қийин.
Гарчи, Тошпўлат ака
Кўринсада шўх — шодон,
Олиб дардни ичига
Юрди алами пипҳон.
Унинг беғубор қалби
Кўкдай мусаффо эди.
Ҳақиқат -- хуш кўргани,
Ёмони — риё эди.
Биласиз, у замонда
Рост гаплар -- жуда тансиқ.
Авж олган ҳар томонда
Сўзламоқ ёлғон -- яшиқ.
Не қилсин, у ҳам раҳбар,
Хўп душвор, чинни айтмоқ,

Рост десанг, кунинг битар,
Бошингга тушар тўқмоқ.
У шоир — ку, элига
Қандай ёлгон сўйлайди?
Йўқ нарсани бор дея
Айтсам, гуноҳ, — ўйлайди.
Юзида юрса кулиб,
Ичда эзилар эди.
Ёзолмас тошиб — тўлиб,
Уни ички дард еди.
— Лекин бир кун буларни
Ёзаман, — дерди, — албат.
Фош айлаб ёлгонларни,
Дейман, мана — ҳақиқат!
Ишонар эди жуда
Шундай давр келмоғига,
Ҳақни ноҳақ устидан
Ғалаба қилмоғига!...
Бу кунларга, афсуски,
Етиб келолмади у.
Эркин ижод даврини
Тотиб кўролмади у.
Тошпўлат ака, бугун,
Сиз кутган замон келди.
Ижодкор аҳли учун
Чин давру даврон келди.
Энди обод юрт бўйлаб
Эсар ҳурлик памоли.
Озод халқимни қутлаб
Нур сочар тонг жамоли.
Энди кўндир эътибор,
Барча ижод аҳлига.

Ҳамма шароит тайёр,
Ёзавер, калб амри — ла!
Бугун эзгу шиордир —
Ёниб, ёзиб ҳақни айт!
Ёлғон ёзмоқлик ордир,
Талаб — юксак маҳорат!
Тошпўлат ака, хуллас,
Ҳозир — сиз айтган замон.
Бўлсангиз, олиб нафас,
Яшардингиз беармон.
Қалбингиз оғир дарддан
Буткул фориг бўларди.
Сиздаги бор дафтарлар
Шеър — достонга тўларди ...

феврал, 2011–йил

XOTIRA – BOQIY

SIZ KUTGAN ZAMON KELDI

Taniqli shoir, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Yozuvchilar uyushmasi mukofoti sovrindori, filologiya fanlari nomzodi Toshpo'lat Hamid o'nlab nazmiy kitoblar muallifidir. U ish faoliyatini o'qituvchilikdan boshlab, uzoq yillar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Buxoro viloyat bo'limini boshqardi. So'ng viloyat gazetasi bosh muharriri, keyinchalik esa viloyat rahbarlaridan biri bo'lib fan, maorif, madaniyat va ma'naviyat sohalariga mutasaddilik qildi. U qaerda ishlamasin, hamisha yosh ijodkorlarga g'amxo'rlik ko'rsatib, o'z maslahat va madadini ayamadi. Shu sabab, Navoiy va Buxorodan yetishib, ayni paytda Toshkentda faoliyat ko'rsatayotgan ko'pgina yetakchi adiblar ham Toshpo'lat akani o'z ustozlari sifatida ehtirom bilan tilga oladilar.

U viloyat rahbari bo'lib ishlaganida, biz — o'sha paytdagi yosh ijodkorlar bilan, o'z tengdoshi yoki yaqin do'sti sifatida muomala qilardim, ba'zan esa yolg'iz qolganimizda o'sha muhit va tuzumdan noroziligini aytib, haqiqiy ijodkor uchun to'la sharoit, erkinlik, keng huquq yo'qligini, adabiyot — siyosiy maydonga aylanganligini, asarlarga badiiyat nuqtai nazaridan emas, uning mavzusiga qarab yuzaki baho berilayotgani, jamiyatdagi oshib

borayotgan nohaqlikdan kuyinib gapirardi. Uning yuzi, ko'zi va so'zidan ko'plar uchun mo'tabar hisoblangan bunday yuksak lavozimda ishlash Toshpo'lat aka uchun azobligini his qilib turardik.

— Biz kutgan zamon, albatta kelar, o'shanda bu vazifadan ketib, erkin ijod qilaman va hozirgi mavjud davr haqida katta asar yozaman, bu asar hajviy bo'ladi, — derdi u. Ustozning o'sha so'zlarini eslab va uning yorqin xotirasiga bag'ishlab ushbu bitikni bitdim.

Bugun o'tib ko'p yillar,
Xolis gapni aytayin.
Qiyin bo'ldi hammadan
Ushbu odamga qiyin.
Garchi, Toshpo'lat aka
Ko'rinsada sho'x — shodon,
Olib dardni ichiga
Yurdi alami pinhon.
Uning beg'ubor qalbi
Ko'kday musaffo edi.
Haqiqat — xush ko'rgani,
Yomoni — riyo edi.
Bilasiz, u zamonda
Rost gaplar — juda tansiq.
Avj olgan har tomonda
So'zlamog' yolg'on — yashiq.
Ne qilsin, u ham rahbar,
Xo'p dushvor, chinni aytmoq,
Rost desang, kuning bitar,
Boshingga tushar to'qmoq.

U shoir -- ku, eliga
Qanday yolg'on so'ylaydi?
Yo'q narsani bor deya
Aytsam, gunoh, -- o'ylaydi.
Yuzida yursa kulib,
Ichda ezilar edi.
Yozolmas toshib -- to'lib,
Uni ichki dard yedi.
-- Lekin bir kun bularni
Yozaman, -- derdi, -- albat.
Fosh aylab yolg'onlarni,
Deyman, mana -- haqiqat!
Ishonar edi juda
Shunday davr kelmog'iga,
Haqni nohaq ustidan
G'alaba qilmog'iga!...
Bu kunlarga, afsuski,
Yetib kelolmadi u.
Erkin ijod davrini
Totib ko'rolmadi u.
Toshpo'lat aka, bugun,
Siz kutgan zamon keldi.
Ijodkor ahli uchun
Chin davru davron keldi.
Endi obod yurt bo'ylab
Esar hurlik shamoli.
Ozod xalqimni qutlab
Nur sochar tong jamoli.
Endi ko'pdir e'tibor,
Barcha ijod ahliga.
Hamma sharoit tayyor,
Yozaver, qalb amri -- la!

Bugun ezgu shiordir —
Yonib, yozib haqni ayt!
Yolgʻon yozmoqlik ordir,
Talab — yuksak mahorat!
Toshpoʻlat aka, xullas,
Hozir — siz aytgan zamon.
Boʻlsangiz, olib nafas,
Yashardingiz bearmon.
Qalbingiz ogʻir darddan
Butkul forigʻ boʻlardi.
Sizdagi bor daftarlar
Sher — dostonga toʻlardi ...

fevral, 2011—yil



ДЎСТИМ МАКСИМ КАРИМНИ ЭСЛАБ...

Порлар эди
Кўзларингда меҳр ҳам вафо,
Соғинч билан дўстларингга
Тикилганинг он.
Неча йилки орамизда
Йўқ сану, аммо
Тирик бўлиб тургандайсан,
Ўнгимда ҳамон.
Мен рост гапни айтаяпман
Дўсту қадрдон.
Дилни қийнар бу оламда
Дўстдан айрилиш.
Тақдир экан, барчасига
Кўникар инсон,
Бу дунёда бор келмоғу
Бир куни қайтиш...
Ҳаёт бўлсанг,
Набиралар бўлиб парвона --
Қўймас эди ҳол — жонингга "бобо -- бобо" лаб.
Шеъринг билан тўлар эди
Дафтарлар яна,
Асарларинг саҳналарни турарди безаб.
Онажонинг узоқ яшаб,
Дуолар қилиб.
Ўзи билан олиб кетди,
Ўтли доғингни.
Мухлисларинг сени эслар гурурга тўлиб,
Сайр этаркан,
Яшнаб турган ижод боғингни...

2009—йил

DO'STIM MAKSIM KARIMNI ESLAB...

Porlar edi
Ko'zlaringda mehr ham vafo,
Sog'inch bilan do'stlaringga
Tikilganing on.
Necha yilki oramizda
Yo'q sanu, ammo
Tirik boqib turgandaysan,
O'ngimda hamon.
Men rost gapni aytayapman
Do'stu qadrdon.
Dilni qiynar bu olamda
Do'stdan ayrilish.
Taqqdir ekan, barchasiga
Ko'nikar inson,
Bu dunyoda bor kelmog'u
Bir kuni qaytish...
Hayot bo'lsang,
Nabiralar bo'lib parvona ---
Qo'ymas edi hol -- joningga "bobo -- bobo"lab.
She'ring bilan to'lar edi
Daftarlar yana,
Asarlaring sahnalarni turardi bezab.
Onajoning uzoq yashab,
Duolar qilib.
O'zi bilan olib ketdi,
O'tli dog'ingni.
Muxlislaring seni eslar g'ururga to'lib,
Sayr etarkan,
Yashnab turgan ijod bog'ingni...

2009- yil

САДРИДДИН САЛИМ БУХОРИЙ ЁДИ

Улкан масжид тўлиб одамга
Тўлқин урар мисоли уммон.
Бошлар эгик, дил ботган ғамга
Сукутдадир булутли осмон.

Бу оламни тарк этмиш эвоҳ,
Бухоронинг суюк дилбанди
Ўзи оддий одам у, аммо
Ушбу юртнинг буюк фарзанди.

Сукутдадир шундан минора
Сукутдадир арк, тоқу, гумбаз
Ўлимгаку йўқ асло чора
Шаҳар йиғлар чиқармасдан сас.

Ўзи суйган Масжиди Калон
Қучоғида ётиб бир муддат,
Йўл олди сўнг манзили томон
Ором олмоқ учун тоабад.

О, тақсиржон Бухоро сизни
Кузатмоқда дуога ўраб.
Энди босар ким изингизни,
Ким руҳ берар кўнгилни сўраб?

Тирикликда кўрсатиб сабот,
Тер тўқдингиз юрғазиб қалам.
Айладингиз дилларни обод
Сиздан ризо пирлар руҳи ҳам.

Бугун эса пирлар тарафга
Бораятсиз чулганиб нурга
Уйғоқ бўлиб улар сафида
Сиз яшарсиз ҳамиша бирга!

11—март, 2010—йил

х х х

Кечир мени жигаргўшам Садриддин,
Сенга атаб ёзганларим кўп ғамгин,
Ахир менда бундай хохиш йўқ эди,
Айрилиқлар мени тирик йўқ этди.

15—март, 2010—йил

SADRIDDIN SALIM BUXORIY YODI

Ulkan masjid to'lib odamga
To'lqin urar misoli ummon.
Boshlar egik, dil botgan g'amga
Sukutdadir bulutli osmon.

Bu olamni tark etmish evoh,
Buxoroning suyak dilbandi
O'zi oddiy odam – u, ammo
Ushbu yurtning buyuk farzandi.

Sukutdadir shundan minora
Sukutdadir ark, toqu, gumbaz
O'lingaku yo'q aslo chora
Shahar yig'lar chiqarmasdan sas.

O'zi suygan Masjid Kalon
Quchog'ida yotib bir muddat,
Yo'l oldi so'ng manzili tomon
Orom olmoq uchun toabad.

O, taqdirjon Buxoro sizni
Kuzatmoqda duoga o'rab.
Endi bosar kim izingizni,
Kim ruh berar ko'ngilni so'rab?

Tiriklikda ko'rsatib sabot,
Ter to'kdingiz yurgazib qalam.
Ayladingiz dillarni obod
Sizdan rizo pirlar ruhi ham.

Bugun esa pirlar tarafga
Borayapsiz chulg'anib nurga
Uyg'oq bo'lib ular safida
Siz yasharsiz hamisha birga!

11--mart, 2010--yil

X X X

Kechir meni jigargo'sham Sadriddin,
Senga atab yozganlarim ko'p g'amgin,
Axir menda bunday xoxish yo'q edi,
Ayriliqlar meni tirik yo'q etdi.

15--mart, 2010--yil

КЎЗ ОЛДИМДА ҲАМИША СИЙМОНГ

(АБДУЛЛА ТЎХТАМУРОДОВГА)

Кўз олдимга келар,
Эсласам,
Кулиб турган шўх сиймонг сени.
Соғинч дилни тарк этмас ҳечам,
Кулиб пайдо бўлсайдинг, қани...
Кезар эдик Боғишамолу
Соя — салқин бўйлаб — Дарғомни,
Регистоннинг кўриб жамолин,
Тинглар эдик жонбахш мақомни...
Бухорода туғилиб, ўсиб,
Бу масканда ишладинг узоқ.
Шу боисдан Самарқанд сени
Яхши билиб, эъзозлар кўпроқ.
Қадим шаҳар бугун яшариб,
Кундан — кунга бўлмоқда кўркам,
Ҳамма ерда буюк ўзгариш,
Ишлар ёшлар — довиорак, ўктам.
Умр — қисқа,
Кетаркан ўтиб,
Ўзгү иши қолар одамнинг.
Изи асло йўқолмас ўчиб,
Бостанида билиб қадамни.
Самарқандни бугун сайр қилиб
Бу ҳикматга бўлдим мен гувоҳ.
Қайда бўлмай,
Сени ёд олиб
Ҳақинга кўп қилдилар дуо!

май, 2010-йил

KO'Z OLDIMDA HAMISHA SIYMONG

(ABDULLA TO'XTAMURODOVGA)

Ko'z oldinga kelar,
Eslasam,
Kulib turgan sho'x siymong seni.
Sog'inch dilni tark etmas hecham,
Kulib paydo bo'lsayding, qani...
Kezar edik Bog'ishamolu
Soya — salqin bo'ylab — Darg'omni
Registonning ko'rib jamolin,
Tinglar edik jonbaxsh maqomni...
Buxoroda tug'ilib, o'sib,
Bu maskanda ishlading uzoq.
Shu boisdan Samarqand seni
Yaxshi bilib, e'zozlar ko'proq.
Qadim shahar bugun yasharib,
Kundan — kunga bo'lmoqda ko'rkam,
Hamma yerda buyuk o'zgarish,
Ishlar yoshlar — dovyurak, o'ktam.
Umr — qisqa,
Ketarkan o'tib,
Ezgu ishi qolar odamning.
Izi aslo yo'qolmas o'chib,
Bosganida bilib qadamni.
Samarqandni bugun sayr qilib
Bu hikmatga bo'ldim men guvoh.
Qayda bo'lmay,
Seni yod olib
Haqingga ko'p qildilar duo!

may, 2010—yil

МУНДАРИЖА

Бахт.....	3
Ватан.....	4
Энг кичик юлдуз.....	6
Изҳор (достон – қасида).....	10

БУХОРОЛИК БУЮКЛАР

Туркон хотун.....	50
Ибн Сино.....	52
Муҳаммад Наршахий.....	54
Уста Бақо.....	56
Маҳмуд Торобий.....	58
Аҳмад Дониш.....	60
Абдурауф Фитрат.....	62
Файзулла Хўжаев.....	64
Садриддин Айний.....	66
Домла Ҳалим.....	68
Олим Хўжаев.....	70

ХОТИРА – БОКИЙ

Сиз кутган замон келди.....	72
Дўстим Максим Каримни эслаб.....	80
Садриддин Салим Бухорий ёди.....	82
Кўз олдимда ҳамиша сиймонг.....	86

Қайдлар учун

This image shows a single sheet of white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There are no margins, text, or other markings on the paper.

Ғулом Шомуроғ

ИЗҲОҒ

(Шеърлар ва достон)

Муҳаррир:
Тех.муҳаррир:
Мусахҳиҳ:
Мусаввир:
Компьютер дастурчиси:
Оператор:

И.Субҳоний
Ғ.Самиева
С.Шомуроғов
К.Икромов
Н.Раджабова
З.Бобоева

Босишга рухсат этилди 26.08.2011 й.

Босма табағи 5.6

Буюртма №1840. Адади 1000.

*"Бухоро" нашриёти. Бухоро ш. И.Мўминов
кўчаси 27—уй.*

*"Ёқуб Довуд" босмахонасида чоп этилди.
Босмахона манзили:*

Бухоро ш. Ўзбекистон мустақиллиги кўчаси



Кундан-кунга очиб жамол,
Юрт бўлмоқда соҳибжамол.
Бу кўркни бахш этдинг унга
Сен Истиқлол, сен истиқлол!

* * *

Kundan-kunga ochib jamol,
Yurt bo'lmoqda sohibjamol.
Bu ko'rkni baxsh etding unga
Sen istiqlol, sen istiqlol!